

**MAHALLIY DORIVOR O`SIMLIKLARNI O`RGANISHDA INTEGRATSIYALASHGAN  
YONDASHUV**

**Akbarova Muxayyo Xusanovna**

*Farg`ona davlat universiteti katta o`qituvchisi*

**Adhamova Ruhshona**

*Farg`ona davlat universiteti talabasi*

Bugungi kunda umumiy o`rta ta`lim tizimida ta`lim olayotgan o`quvchilarda yuqori darajada biologik ta`lim olishi, fan sohasida yetarli bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish dolzARB masalaga aylanib bormoqda.

Sanoatning bevosita rivojlanishida biologik bilimlar (genetik injeneriya, biotexnologiya kabi fanlar) o`z o`rniga ega ekanligi namoyon bo`lmoqda, bu esa iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishda biologik innovatsiyalarning rolini kuchaytiradi va amaliy ahamiyatini ko`rsatib beradi.

Eng yangi biologik texnologiyalarining rivojlanishidagi kechikish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini pasaytirishi, shuningdek, o`sib borayotgan geosiyosiy raqobat sharoitida uning zaifligini oshirishi mumkin.

Xususan, sanoatda kutilayotgan yangi o`zgarishlar sharoitida umumiy o`rta, professional ta`lim tizimlarida biologik bilimlar o`quvchi-yoshlarda ijodkorlik qobiliyati va mehnat ko`nikmalarini rivojlanirish, ularda oliy ta`lim bosqichida yoki mustaqil hayotga qadam qo`yishda zarur bo`ladigan bazaviy kompetensiyalar va ilmiy dunyoqarashlarni shakllantirishda asosiy yechim bo`lib xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtida ta`lim tizimida o`qitish va tarbiyalashni tashkil qilish jarayonida fanlararo integratsiya muammosiga yana bir bor katta e'tibor berilmoqda.

Zamonaviy dunyoda integratsiya tushunchasi juda keng qo`llaniladi va turli jihatlarda ko`rib chiqilmoqda. Lotinchada so`zma-so`z tarjima qilinganda integration- tiklash, to`ldirish, integer-butun ma`nosiga ega. Binobarin, integratsiya - bu fanlarning yaqinlashishi va o`zaro aloqa jarayoni; differensiatsiya bilan birga kechadi;

Integratsiya - fanlararo va fanlararo aloqalarni o`rnatish, turli ta`lim dasturlari o`rtasidagi o`zaro ta'sir orqali ta`lim mazmunining yaxlitligiga erishish jarayoni va natijasidir. Zamonaviy sharoitlarda fanlarni o`qitishda ularning integratsiyasini ta'minlashga yetarli e'tibor berilmay kelmoqda. Muammoni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar esa tegishli o`quv rejalarida ushbu fanlarni o`qitishning vaqt bo`yicha muvofiqlashtirilishi yoki fanlar mazmunini qisman uyg`unlashtirishga oid tadbirlar bilan cheklanmoqda. Uni tubdan hal qilish uchun esa, o`quvchilar egallaydigan bilimlari yuqori sifat darajasini ta'minlovchi o`quv fanlari integratsiyasining zaruriy shart-sharoitlari, shakl, mazmun va vositalarini ishlab chiqishni talab etilmoqda.

O`quv fanlari integratsiyasining asosiy maqsadi sub'ektiv yangi bilimlarni sintez qilishdan iborat bo`lib, integratsiya jarayonlarining bosh vazifasi – sub'ektiv yangi ilmiy bilimlarni sintez qilishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosida o`quvchilarga ta`lim-tarbiya berishda umumta`lim fanlari bo`yicha fanlararo bog`lanish va amaliy yondashuvga e'tibor qaratilmaganligini ayniqsa botanika fani ta`lim jarayonida kuzatish mumkin. O`quvchilar mahalliy floradagi o`simliklarni deyarli bilmasligi, ayniqsa ularda noyob va dorivor o`simliklarni o`rganish ko`nikmasi shakllantirilmaganligi bunga misol bo`ladi.

O`quvchilarda tabiiy holda o`suvchi dorivor o`simliklarning ham xom-ashyo zahirasi chegaralangan bo`lib, ularni muhofaza qilish, bioekologik xususiyatlarini o`rganish, xom-ashyo zahirasidan to`g`ri foydalanish va ko`paytirishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan ekanligi haqida tasavvur hosil qildirish muhim ahamiyatga egadir.

O`zbekiston Respublikasining 2020 yil 10 apreldagi “Yovvoyi holda o`suvchi dorivor o`simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to`g`risida” 4670-sonli qarorida 2020/2021 o`quv yilidan boshlab 2025/2026 o`quv yiliga qadar o`rta, o`rta maxsus va oliy ta`lim tizimida dorivor o`simliklarga oid maxsus soatlarni o`quv rejalariga kiritilishi belgilangan.

Mazkur qarordan kelib chiqib botanika darsliklariga ham mahalliy floradagi dorivor o`simliklar haqida bat afsil ma`lumotlar kiritilsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Ayniqsa dorivor o`simliklarning rangli rasmlari asosida tayyorlangan botanik atlas va xaritalarni o`quv qo`llanma shaklida ishlab chiqish ayni muddao bo`lar edi.

O`quvchilar O`zbekiston florasida tabiiy holda tarqalgan dorivor o`simliklarni, xalq tabobati va rasmiy tabobatda qo`llanilayotgan o`simliklarning biokimiyoviy tarkibini, dorivorlik xususiyatlarini, tarqalish arealini, tabiiy dorivor o`simliklarning zaxirasi va ularni o`rganish usullarini bilishi va qo`llay olishi, mahalliy dorivor o`simliklarni ajrata olishi, “Qizil kitob”ga kiritilgan dorivor o`simliklarni bilishi, dorivor o`simliklar xom-ashyosini ishlab-chiqarishdagi ahamiyati va o`rni yuzasidan ko`nikmalarga ega bo`lishi kerak.

Bu bilimlar o`quvchilarda tabiiy muhitga nisbatan ma`suliyatli munosabatni shakllantirish uchun, insoniyatni tabiiy boyliklardan oqilona va ehtiyyotkorlik bilan foydalanish zarur ekanligini tushuntirish uchun va nihoyat, ularga odam va butun insoniyat faoliyatining tirik tabiatga ko`rsatayotgan ta`siri oqibatlarini ko`ra bilish uquvlarini singdirish uchun asos bo`ladi.

O`quv fanini o`rganishdan maqsad o`quvchini fandagi ob'ektiv yangilik bilan tanishtirish emas, balki unda sub'ektiv yangilikka ega bo`lgan bilimlarni shakllantirishdan iborat. O`quv fanlarini integratsiyalashning didaktik mohiyati turli o`quv fanlari bo`yicha yangi bilimlarni shakllantirishning kontseptual tuzilma va metodlarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tadbirlar tartibi hamda qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati bilan

belgilanadi. Tor ma'noda qaralganda, o'quv fanlari integratsiyasi fan sohalari va ilmiy bilimlar o'zaro sintezining uzviy davomi hisoblanadi.

Ta'limgangi integratsiya moda emas, balki inson faoliyatining har qanday sohasi uchun yuqori sifatli mutaxassislarini tayyorlash zaruratidir. Ta'limganda integratsiya texnologiyasi fanning alohida qismlarini yaxlit kompleksga birlashtirishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, bu nafaqat turli xil bilimlarning mexanik birikmasi, balki ular o'zaro bog'liq bo'lgan yondashuvni qo'llash va muayyan muammolarni hal qilishda odam tizimli ravishda harakat qilishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limganda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog - o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: “Iste'dod” jamg’armasi, 2008. – 180 b.
2. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: O'qituvchi, 2004. -104 b.
3. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Pedagogika oliy o'quv yurti talabalari uchun o'quv qo'llanma. I-II qismlar. T.: TDPU. 2004. – 76 b, 106 b.
4. Акбарова М. Х., Жураев З. Н. У. Состояние ценопопуляций *Scutellaria adenostegia* Briq.(Lamiaceae) в Ферганской долине //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 34-40.
5. Akbarova M. X., Nabijonova G. F., Juraev Z. N. Distribution of *Scutellaria adenostegia* Briq.(Lamiaceae) in botanical and geographical regions of Uzbekistan //BBK. – 2020. – Т. 1. – С. A28.
6. Тургинов О. Т., Акбарова М. Х. Распространение видовой флоры рода *Scutellaria* L.(Lamiaceae) Ферганской долины //American Journal of Plant Sciences. – 2020. – Т. 11. – С. 1533-1544.
7. Акбарова М. Х., Бекчонова М. Ф. К вопросу о таксономическом ранге эндемичных среднеазиатских групп рода *Scutellaria* L //ББК. – 2020. – Т. 1. – С. 18.
8. Akbarova, Muhayyo Xusanovna, and Sevara O. Dadajonova. "Ktamjon Qizi Ko'kamaron *Scutellaria* L.(Lamiaceae) turkumining ayrim dorivor vakillari." (2022).
9. Акбарова М. Х. и др. Обзор гербарии рода *Scutellaria* I //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 18-24.
10. Akbarova M. X., Turdibekov M. M. O. G. L. Shoximardonsov havzasida tarqalgan shifobaxsh o'simliklar //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 102-108.